

## **YANGI BOBIL PODSHOLIGI**

*Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tuman*

*2-son kasb hunar maktabining tarix fani o'qituvchisi*

***Issayeva Moxira Axmatovna***

**Annotatsiya:** Maqolada yangi Bobil podsholigining Bobil shohi taxtga o'tirishi, madaniy hayoti, qadimgi tarixi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Yangi Bobil imperiyasi, Mesopotamiya, Falastin, Nabopalassar, Xaldey, Navuxodonosor

Yangi Bobil imperiyasi (Ikkinchi Bobil imperiyasi) - Miloddan avvalgi 626-539-yillarda Mesopotamiya, Falastin va qisman Misrda hukmronlik qilgan davlat. Miloddan avvalgi 626-yilda Bobil shohi Nabopalassarning toj kiyib taxtga o'tirishidan Yangi Bobil imperiyasi davri boshlanadi. Miloddan avvalgi 612-yilda Yangi Ossuriya imperiyasining qulashidan so'ng, Yangi Bobil kuch-qudratga to'la boshlaydi. Bu davlatni Xaldeylar sulolasi boshqargan, shuning uchun ba'zi manbalarda imperiyani Xaldeylar podsholigi deb ham atashgan. Yangi Bobil podshohligi m.a. VII asrgacha Ossuriya tarkibida edi. Ossuriyaning zaiflashishi natijasida, Bobil tarixda ikkinchi marta yaqin Sharqda hukmronlikni qo'lga olish uchun tiklandi (birinchi marta podsho Xammurappi davrida Bobil ana shunday kuch-qudratga ega edi). Yangi Bobil hukmronligi davri butun Bobilda misli ko'rilmagan iqtisodiy o'sish va aholi sonining ko'payishi kuzatildi, madaniyat va san'at taraqqiy etdi. Yangi Bobil shohlari hashamatli saroylar, qasrlar, bog'lar va ibodatxonalar qurishda tengsizlikka erishdilar. Bobilda 2000 yil avvalgi Shumer-Akkad madaniyati yuksak ko'rinishi tiklandi. Imperiya madaniy hayotda o'z nomini podsho Navuxodonosor II tufayli saqlab qolgan. Uning nomi Bibliyada ham kelgan, chunki u m. a. 587-yilda Iyerusalim (Quddus) ni varon etib, yahudiylarni u yerda Bobilga ko'chirgan edi. Natijada, tarix sahifasida yahudiylar uchun Bobil

asirligi hisoblangan davr yuzaga keldi (m.a. 587-539-yillar). Yangi Bobil imperiyasi Navuxodonosor II davrida o'zining oltin davrini boshdan kechirdi.

Yangi Bobilning oxirgi podshohi Nabonid davrida oy xudosi Sinning Bobilning homiy xudosi Mardukdan ustun deb e'lon qilinishi xalq va ruhoniylar orasida norozilik keltirib chiqardi. Bu narsa tufayli davlat zaiflashdi, bundan foydalangan forslar shohi Kir II miloddan avvalgi 539-yilda Bobilni bosib oldi. Shundan so'ng, Bobil o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy nufuzini yo'qotdi. Bobil keyingi imperiyalar hukmronligi davrida bir necha marta o'z qudratini tiklashga harakat qilib isyon ko'tarsa-da, bunga erisha olmaydi. Bobilga mustaqil davlat sifatida amoriylar boshlig'i Shumu-abum tomonidan taxminan m. a. 1894-yilda asos solingan. Tashkil etilganidan keyin bir asrdan ko'proq vaqt davomida u kichik va zaif davlat bo'lib, Isin, Larsa, Ossuriya va Elam kabi kuchli davlatlar tazyiqi ostida qoladi. Ammo podshoh Xammurappi (m. a. 1792-1750 yillar) davrida Bobil yirik davlatga aylandi va butun Mesopotamiya hududlarini zabt etdi, Qadimgi Bobil imperiyasiga asos solindi. Xammurappining o'limidan keyin uning sulolasi yana bir yarim asr davom hukmronlik qildi, shundan keyin Bobil yana kichik davlatga aylandi. M. a. 1595-yilda Bobilni Xett podshohi Mursili I bosib oldi. Undan so'ng, tog'lik kassitlar qabilasi shaharni varon etadi. Bobil podshohligining qadimgi davri shu tariqa yakunlanadi. Kassitlardan keyingi O'rta Bobil davrida Bobil aholisi ikkita asosiy guruhdan iborat edi: mahalliy bobilliklar (shumerlar va akkadlar bilan qo'shilib ketgan kassit va amoriylar avlodlari) va yaqinda kelgan, Levantdan kelgan qabilalar (sutiylar, oromiylar va xaldeylar). M. a. VIII asrga kelib, yirik shaharlardagi asosiy aholi bo'lgan mahalliy bobilliklarning tarkibiy guruhlari o'zlarining eski o'zliklarini yo'qotib, birlashgan "Bobil" madaniyatiga singib ketishdi. Shu bilan birga, xaldeylar o'zlarining qabilaviy tuzilishi va turmush tarzini saqlab qolgan bo'lsalar-da, ko'proq "bobillashgan" holatga o'tdilar. Xaldeylar Bobil qudratining qayta tiklanishida juda katta ahamiyat kasb etdilar, m. a. 730-yilda shu qabiladan yagona shoh saylanib, qabilani birlashtirishga erishadi.

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlar mustaqil Bobil podshohligi uchun halokatli bo‘ldi, zaif podshohlar Bobil aholisini tashkil etuvchi barcha guruhlarni nazorat qilmay, raqiblarini mag‘lub etishga ojizlik qildilar va muhim savdo yo‘llarini saqlay olmadilar. Bu narsa oxir-oqibatda Bobilning shimoliy qo‘shnisi Yangi Ossuriya imperiyasining m. a. 745-729-yillarda Bobilni istilo etishiga olib keldi. Ossuriya istilosi tufayli Bobilning Ossuriyaga qarshi bir asrlik ozodlik kurashi boshlandi. Garchi ossuriyaliklar mintaqani o‘z imperiyalariga qo‘shib, Ossuriya shohi unvoniga qo‘shimcha ravishda Bobil shohi unvonini ishlatgan bo‘lsalar ham, Ossuriyaning Bobil ustidan nazorati barqaror emasdi, bu hududda tinimsiz isyonlar bo‘lib turardi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qadimgi dunyo tarixi Y.S.Krushkol 1975
2. Xalqaro munosabatlar tarixi va diplomatsiya. 2009